



“USTOZ – SHOGIRD” FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O'RNI VA VAZIFALARI

Tojiboyeva E'zozxon Muhammadjonovna

Yangiqo'rg'on tumani MMTB ga qarashli 53-sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabining psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ustoz – shogird” ilmiy faoliyatini rivojlantirishda xarakterni isloh qilish hozirgi kunda yosh avlodni kasbga yo'llash, ularga ta'lim o'rgatish ishlarini amalga oshirishda «Ustoz-shogird» ananalariga tarbiyaning qanday amalga oshirilishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Dastur, poydevor tushunchasi, xarakter, aqliy kamolot, dunyoqarash, insoniy ijodkor, ijtimoiy, yondashuv, barkamol insonni.

Hozirgi kunda yosh avlodni kasbga yo'llash, ularga ta'lim o'rgatish ishlarini amalga oshirishda «Ustoz-shogird» an'analarga asoslanilmoqda.

Qadimda ota-bobolarimiz farzandlarini komil inson bo'lib yetishishiga katta e'tibor bilan qarashgan, ya'ni bobolarimiz uslubiga ko'ra xarakter faqat yetuk ustozlar tarbiyasi asosidagina hosil qilinadi. Unga ko'ra, farzandning saodatmand bo'lib o'sishini istagan ota-ona nuridiydasi zamonaning mashhur ustoziga topshirgan. O'z navbatida ustoz bolaning ma'naviy va jismoniy sog'lom bo'lib o'sishi ma'suliyatini zimmasiga olgan. Chunki etuk farzand vaqti kelib oilani, ustozni va jamiyatni, Vatanni shon-shuhratga burkagan. Shu sababli ustoz qo'lidagi tarbiya oluvchining o'z farzandidek aziz deb bilgan. Bizda biror bir mashhur zot uchrasa birinchi navbatda uning ustozini, so'ng nasl-nasabi so'rab surishtirilar edi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya muassalarida olib borilayotgan ustoz-shogird tizimida aynan shogirdlarni tarbiyalashda uning xarakter xususiyatlari inobatga olinmoqda. Ushbu maqolada o'quvchilarning komil inson bo'lishlarida ustozlarning o'rni hamda ularni o'rganishda psixodiagnostik metodlardan foydalanish,



shuningdek ta'lim-tarbiya jarayonining samarali usullari yoritib berilgan. Komil insonni voyaga etkazishning – “Ustoz” instituti qadim jamiyatimizda yillar davomida shakllanib kelgan. Unga ko'ra ustoz, o'z shogirdini quyidagi uslublarga ko'ra tarbiyalagan.

Birinch: shogird xarakteridagi kuchli va zaif tomonlarni anglab olish. Agar shogirda ijobiy xislatlar ko'p bo'lsa, uni kuchaytirish. Bordi-yu salbiy xususiyatlar ustivor bo'lsa, har xil yumushlar buyurish bilan isloh qilish. Misol uchun Jalollidin Rumiy m'eyoridan ortiq mag'rur bo'lgani uchun ustoz Shams Tabriziy unga mahallama-mahalla yurib, odamlarning uylarini tozalashni buyurgan. Natijada Rumiy qalbi pok oddiy odamlarga nisbatan mag'rurlikni tashlaydi va oddiy fuqaroparvar bir inson bo'lib qoladi.

Ikkinchi: Shogirdning qiziqish olamini anglab olish, agar unda ezgulikka havas bo'lsa, bu tuyg'u takomillashtirilgan. Agar yovuzlikka moyillik bo'lsa, isloh qilingan. Mashrab hurfikrlikka moyil edi. Ilk ustoz Bozor Oxund Mashrabni o'zidan kuchliroq bo'lgan Hidoyatulloh Ofoq Hojaga jo'natadi. Bozor Oxund shogirdini fikrini bo'g'ib qo'yishi mumkin edi va mashrab Ofoq xo'ja huzurida valiy bo'lib etishadi. Fuzayl Ayozi o'g'irlikka moyilligi bor edi. Ustoz unga o'g'irlikni buyurdi va uyushtirilgan holda qo'lga tushirib Fuzaylni odamlar orasidan olib o'tkazdi. Fuzayl keyinchalik o'g'irlarni hayotga qaytarish tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bugun biz tarbiyalanuvchilarning qiziqish olamini to'g'ri anglab olishimiz va to'g'ri yo'naltira bilishimiz lozim.

Uchinchi: Shogird xarakterini shakllantirishda ustozning namuna bo'lishi, Fariddin Attor mo'g'ul bosqinchilari qo'lga tushib qoladi. Shogirdlari mo'g'ul askarlar ketidan ergashishadi. Bir mo'g'ul askari sherigiga deydi: Shu qari cholni menga sot, o'n oltin tanga beraman” dedi. Attor asr olganga dediki: “Sotma men bundan qimmat turaman” Bir oz yurishgach yana bir mo'g'ul askari cholni menga sot, bir qop somon beraman dedi. Attor asir olgan kishisiga dediki, “Tez sot men bundan qimmatiga arzimayman”. Johil mug'ul askari bu gapni eshitib attorni chopib tashladi. Voqeaning guvohi bo'lgan attorning shogirdlari yig'ilishib xulosa qilishdi. “Ulug'lik pulga sotilmaydi, uning bahosi yo'q. Bugun biz ustozning so'zda fikrda va amaliyotda ibrat manbai bo'lishiga erishishimiz kerak. Biz uchun ustoz ideal shaxs bo'lmas ekan, xarakterimiz kemptik bo'lib qoladi.



Xalqimizda bir ibratli maqol bor “Ustozdan o‘tmagan shogird-shogird emas” . Bugungi “Ustoz-shogird” maktablarida faoliyat olib borayotgan shogirdlar kelajakda o‘z ustozlari kabi bilimli va mahoratli ustozlar bo‘lib yetishsagina, biz bugungi kun ustozlari bilan faxrlana olamiz va ta’lim oldidagi sharaflı burchimizni bajargan bo‘lamiz.

Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari quyidagilardan iborat:

- ustozga itoatli bo‘lish va ustoz an'alarini davom ettirish;
- ustozni yuzini yerga qaratmaslik, uning obro‘cini ko‘tarish. Ustozning sha'niga ilıq so‘zlar olib kelish;

Birovning narsasiga ko‘z olaytirmaslik, ustozga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo‘lish deganda – shogird o‘z kasbini sevishi, ishga e’tiqod qo‘yishi va o‘ta ishonishi ustoz oldida hokisor bo‘lishi nazarda tutilgan. Xuddi shuningdek ustoz ham quyidagilarga amal qilmog‘i lozim. Ustoz shaxsiy fazilatlarining o‘ziga xos tomonlari: saxiylik, odoblilik, mehr-shafqatlilik, ochiq yuzlik, xushmuomalalik, sabrlilik, talabchanlik, qanoatlilik, to‘g‘ri so‘zlik, poklik, muloyimlik, rostgo‘ylik, do‘stlik, hamkorlik, hamjihatlik va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ustoz maqomiga ega bo‘lgan tajribali pedagog avvalo oliy ma’lumotli o‘z ixtisosi bo‘yicha yetarlicha mehnat stajiga ega bo‘lishi, yangilikka intiluvchan, doimiy tarzda bilimlarini oshirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.,1998
2. E.G'oziev. Umumiy psixologiya. I-kitob, Toshkent, 2002 yil.
3. H.Yo‘ldoshev., S.Bilatov. «Ustoz-shogird» odobi. «O‘zbekiston» nashriyoti. T.: 2005 yil.